



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 7 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 7

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-7>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Sayfullayeva Mahbuba Azim qizi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INGLIZ HUQUQINI JORIY ETISH VA QO'LLASHNING SHARTLARI VA ISTIQBOLLARI.....5

2. Мамадалиев Бахтиёр Зокирович

ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДА ҚОНУНЧИЛИК ИЖРОСИ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ.....13

3. Ummatov Muhammadrasul Tursunovich

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SUBYEKTLARI ORASIDA JAVOBGARLIKNI SOHA, HUDUD VA YO'NALISHLAR BO'YICHA BIRIKTIRISH VA AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI.....21

4. Axatov Shuxrat Shoim o'g'li

SUN'IY INTELLEKTDAN JINOYAT SODIR ETISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISHNING JINOIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....30

5. Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI KIBER-TA'QIB (CYBERSTALKING)NING JINOYAT-HUQUQIY TABIATI: MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR VA XORIJIY TAJRIBANING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI.....36

6. Ismoilov Shoxabbos G'ayratjon o'g'li

JINOYAT TARKIBINING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV BELGILARIGA KO'RA NORMALAR RAQOBATINING HUQUQIY TAHLILI.....47

7. Матмуратов Батир Джолдасович

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЯНГИ ЖИНОЯТ КОДЕКСИГА ЖАРИМА ЖАЗОСИНИ АСОСИЙ ЖАЗОГА ҚЎШИМЧА ҚИЛИБ КИРИТИШ ВА УНИ КОРРУПЦИЯ ЖИНОЯТЛАРИГА КЕНГ ЖОРИЙ ЭТИШ ЗАРУРАТИ.....58

8. Noraliyev Turg'un Eshmurod o'g'li

TEKNOLOGIK TARAQQIYOT SHAROITIDA JINOYAT PREDMETINING EVOLYUTSIYASI: SUN'IY INTELLEKT, KRIPTO-AKTIVLAR, VIRTUAL MULK VA AXBOROT JINOIY TAJOVUZ OBYEKTI SIFATIDA.....66

9. Утаев Хусниддин Хуррамович

РАҚАМЛИ МУЛКИЙ ҚИЛМИШЛАРНИ ТУРДОШ ЖИНОЯТ ТАРКИБЛАРИДАН ФАРҚЛАШНИНГ ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ МОДЕЛИ.....77

10. Махмадиярова Хумора Ўктам кизи


БИРИНЧИ ИНСТАНЦИЯ СУДЛАРИДА ИШ ЮРИТИШДА ТОРТИШУВ ПРИНЦИПИНИНГ АҲАМИЯТИНИ КУЧАЙТИРИШ.....85

11. Архангельская Екатерина Константиновна

«ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В ОТНОШЕНИИ ИНОСТРАНЦЕВ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ДИСТАНЦИОННЫЙ ОПРОС С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ».....84

12. Sattarov Ja'surbek Avazbekovich

AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIKKA QARSHI PROFILAKTIKANING YANGI MODELI: MAHALLABAY YONDASHUV, ANTIFROD MEKANIZMLAR VA VIKTIMOLOGIK HIMOYA ISTIQBOLLARI.....103



12.00.02-КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

Sayfullayeva Mahbuba Azim qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy tadqiqotchisi

E-mail:mahbubasayfullayeva@gmail.com

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INGLIZ HUQUQINI JORIY ETISH VA QO‘LLASHNING SHARTLARI VA ISTIQBOLLARI

For citation: Sayfullaeva Mahbuba Azim kizi. CONDITIONS AND PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION AND APPLICATION OF ENGLISH LAW IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 7.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22235313>

ANNOTATSIYA

Jahondagi huquq oilalari orasida alohida o‘ringa ega bo‘lgan ingliz huquqi bugungi kunda xalqaro savdo va iqtisodiy munosabatlarning kengayishi natijasida ko‘plab davlatlar huquq tizimiga turli shakllarda kirib bormoqda va bu mazkur yurisdiksiyalar uchun turli huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur maqolada ingliz huquqining tarixiy shakllanishi, asosiy manbalari va zamonaviy xalqaro tijoratdagi o‘rni qiyosiy-huquqiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Ingliz huquqi institutlarining boshqa huquq tizimlariga retsepsiyasi Singapur va Kipr tajribasi asosida tahlil qilinib, bunday jarayonning huquqiy va institutsional shartlari ochib beriladi. Shuningdek, O‘zbekistonda ingliz huquqining ayrim institutlarini qo‘llash imkoniyatlari, ularni milliy huquq tizimiga moslashtirish bilan bog‘liq muammolar hamda istiqbolli yo‘nalishlar baholanadi. Tadqiqot natijasida ingliz huquqini yaxlit tizim sifatida qabul qilishdan ko‘ra, milliy huquqiy va iqtisodiy ehtiyojlarga mos institutlarni selektiv retsepsiya asosida joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: ingliz huquqi, umumiy huquq, huquq retsepsiyasi, huquqiy transplantatsiya, selektiv retsepsiya, sud pretседenti, equity.

Сайфуллаева Махбуба Азим кизи,

Научный исследователь Ташкентского

государственного юридического университета

E-mail: mahbubasayfullayeva@gmail.com

УСЛОВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВВЕДЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ

Английское право, занимающее особое место среди правовых семей мира, в условиях расширения международной торговли и экономических отношений все активнее проникает в правовые системы различных государств в различных формах, порождая для соответствующих юрисдикций определенные правовые последствия. В настоящей статье с

сравнительно-правовой точки зрения исследуются историческое становление английского права, его основные источники и современное значение в международной торговле. На основе опыта Сингапура и Кипра анализируется рецепция институтов английского права в иные правовые системы, а также раскрываются правовые и институциональные условия данного процесса. Кроме того, оцениваются возможности применения отдельных институтов английского права в Узбекистане, проблемы их адаптации к национальной правовой системе и перспективные направления дальнейшего развития. По результатам исследования обосновывается целесообразность не комплексного заимствования английского права как целостной системы, а селективной рецепции отдельных институтов с учетом национальных правовых и экономических потребностей.

Ключевые слова: английское право, общее право, рецепция права, правовая трансплантация, селективная рецепция, судебный прецедент, equity.

Sayfullaeva Mahbuba Azim kizi,

Scientific Researcher at Tashkent State University of Law

E-mail: mahbubasayfullayeva@gmail.com

CONDITIONS AND PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION AND APPLICATION OF ENGLISH LAW IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ANNOATION

English law occupies a distinctive position among the world's major legal traditions and, with the continued expansion of international trade and cross-border economic relations, its rules and institutions are increasingly being incorporated into the legal systems of other jurisdictions. This article examines the historical development of English law, its principal sources, and its contemporary significance in international commerce from a comparative legal perspective. Particular attention is given to the reception of English legal institutions in Singapore and Cyprus and to the legal and institutional conditions that have shaped these processes. The article further considers the potential application of selected English law institutions in Uzbekistan, the challenges associated with their adaptation to the national legal framework, and possible directions for their future development. It concludes that, rather than adopting English law as a comprehensive legal system, Uzbekistan would benefit from a selective approach focused on those institutions that correspond to its legal and economic needs.

Keywords: English law, common law, legal reception, legal transplantation, selective reception, judicial precedent, equity.

Kirish. Bugungi kunda xalqaro savdo, investitsiya va moliyaviy munosabatlarning kengayib borishi davlatlar huquq tizimlari oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Transchegaraviy bitimlarda taraflar uchun shartnomaning iqtisodiy shartlaridan tashqari, unda qaysi huquq qo'llanilishi, ya'ni qo'llaniladigan huquqni (governing law) belgilash ham alohida e'tibor qaratiladigan masalalardan biridir. Ayniqsa, turli yurisdiksiyalarga mansub kompaniyalar o'rtasidagi munosabatlarda qo'llaniladigan huquq aniq, barqaror va oldindan prognoz qilish mumkin bo'lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, Angliya va Uels huquqi – **ingliz huquqi** – xalqaro tijorat va moliyaviy munosabatlarda eng ko'p tanlanadigan huquq tizimlaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi.

Ingliz huquqining xalqaro amaliyotdagi mavqeini uning tijorat shartnomalarida qo'llaniladigan huquq sifatida qanchalik keng tanlanayotganidan ham ko'rish mumkin. Lyuksemburg universiteti qiyosiy huquqshunoslik va xalqaro xususiy huquq instituti professori Gilles Cuniberti tomonidan 4 400 dan ortiq xalqaro shartnoma va qariyb 12 000 taraf ishtirokidagi arbitraj materiallari asosida o'tkazilgan tadqiqotda ingliz huquqi xalqaro shartnomalarda eng ko'p tanlanadigan huquqlardan biri ekani aniqlangan [1]. So'nggi statistik ma'lumotlar ham bu tendensiya saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Xalqaro savdo palatasining (International Chamber of Commerce – ICC) 2025-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, yangi arbitraj ishlarining 95 foizida taraflar shartnomaga qo'llaniladigan huquqni oldindan belgilagan. Ingliz huquqi esa 113 ta yangi tayinlangan ishlarda,

ya'ni taxminan 13 foiz holatda qo'llaniladigan huquq sifatida tanlangan [2]. London xalqaro arbitraj sudi (London Court of International Arbitration – LCIA) amaliyotida ham ingliz huquqi yuqori ulushni saqlab qolmoqda. 2024-yilda LCIA arbitrajlarining 78 foizida aynan Angliya va Uels huquqi moddiy huquq sifatida qo'llanilgan [3].

Bunday ko'rsatkichlar ingliz huquqining xalqaro biznes uchun jozibadorligi tasodifiy emasligini ko'rsatadi. Uning asosiy afzalliklaridan biri huquqiy aniqlik va barqarorlikdir. Uzoq yillar davomida shakllangan sud amaliyoti ko'plab tijorat masalalari bo'yicha aniq yondashuvlarning mavjud bo'lishiga yordam beradi. Bu esa kompaniyalarga shartnoma tuzish vaqtida huquqiy risklarni yaxshiroq baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, ingliz shartnoma huquqida taraflarning irodasi va shartnoma erkinligiga katta ahamiyat beriladi. Professional tijorat subyektlari o'z huquq va majburiyatlarini, javobgarlik chegaralarini hamda risklarni shartnomada batafsil belgilash imkoniga ega. Shu sababli ingliz huquqi murakkab xalqaro savdo va moliyaviy bitimlar uchun qulay huquqiy vosita sifatida shakllangan.

Shu sababli so'nggi yillarda ayrim davlatlar ingliz huquqining alohida institutlari va tamoyillaridan foydalanishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda. Bunday yondashuv, ayniqsa, xalqaro savdo, moliya, korporativ munosabatlar, investitsiya faoliyati va nizolarni hal etish sohalarida uchraydi. Biroq xorijiy huquqni boshqa huquq tizimiga joriy etish oddiy ko'chirish jarayoni emas. Uning samarali ishlashi mahalliy qonunchilik, sud tizimi, yuridik ta'lim va huquqni qo'llash amaliyoti bilan qanchalik moslashishiga bog'liq. Shu bois ingliz huquqini qabul qilish tajribasini o'rganishda nafaqat uning afzalliklari, balki boshqa davlatlarda qanday shaklda va qanday shartlarda tatbiq etilgani ham muhimdir.

Mazkur masala O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Mamlakatda xalqaro savdo hajmining kengayishi, xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi va yirik transchegaraviy loyihalarning ko'payishi xalqaro biznes uchun tushunarli va ishonchli huquqiy mexanizmlarga ehtiyojni oshirmoqda. 2025-yilda O'zbekistonda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 43,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, shundan 38,2 milliard dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri kelgan [4]. Bunday sharoitda xalqaro tijoratda keng qo'llaniladigan ingliz huquqi institutlarini o'rganish, ularning afzallik va cheklovlarini aniqlash hamda O'zbekiston huquq tizimida ulardan foydalanish imkoniyatlarini baholash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu maqolaning maqsadi ingliz huquqining shakllanishi, asosiy manbalari va zamonaviy xalqaro ahamiyatini tahlil qilish, uning boshqa davlatlarda qo'llanilish tajribasini o'rganish orqali O'zbekistonda ingliz huquqi institutlaridan foydalanishning huquqiy shartlari va istiqbollarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida ingliz huquqining tarixiy rivojlanishi, xalqaro tijoratdagi afzalliklari, xorijiy tajriba hamda O'zbekistonda uni qo'llashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy va institutsional muammolar ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism.

Ingliz huquqining shakllanishi va asosiy manbalari

Ingliz huquqi uzoq tarixiy rivojlanish natijasida shakllangan bo'lib, bugungi kunda ingliz umumiy huquqi (common law) an'anasining asosini tashkil etadi. Qiyosiy huquqshunoslikda ushbu tizim romano-german huquq oilasidan, avvalo, huquq manbalarining shakllanishi va sud amaliyotining o'rni bilan farqlanadi. Huquqshunos A.X. Saidov va M.N. Marchenko ham anglo-sakson huquqiy oilasining o'ziga xosligini uning tarixiy rivojlanishi, sud pretsedenti va huquqni qo'llash usullari bilan bog'laydi [6;7].

Ingliz huquqining dastlabki ildizlari anglo-sakson davriga borib taqaladi. O'sha davrda yagona huquq tizimi mavjud bo'lmay, turli hududlarda mahalliy odatlar va an'analar amal qilgan. 1066-yildagi Norman istilosidan keyin esa davlat boshqaruvi va sud tizimi asta-sekin markazlashib bordi. Ayniqsa, XII asrda qirol Henry II davrida qirollik sudlari faoliyatining kengayishi turli hududlarda bir xil huquqiy yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Natijada butun mamlakat uchun umumiy bo'lgan huquq common law vujudga kela boshladi [8].

Umumiy huquqning rivojlanishida qirollik sudlari va sud amaliyoti asosiy o'rin tutdi. Muayyan nizolar bo'yicha shakllangan yondashuvlar keyingi o'xshash ishlarni hal etishda ham qo'llanila boshladi. Vaqt o'tishi bilan bu amaliyot sud pretsedenti va "stare decisis" tamoyilining

shakllanishiga asos bo'ldi. Kembrij universitetida ingliz huquqi tarixi professori J.H. Baker ingliz huquqining rivojlanishini sudlar faoliyati, protsessual shakllar va professional yuristlar faoliyati bilan uzviy bog'laydi. Shu jihatdan Angliya huquqi Yevropa qit'asidagi Rim huquqi retsepsiyasi va keng kodifikatsiya yo'lidano borgan davlatlardan farqli yo'nalishda rivojlangan [9].

Biroq umumiy huquqning qat'iy protsessual qoidalari har doim ham adolatli yechim topish imkonini bermagan. Shu sababli vaqt o'tishi bilan unga parallel ravishda "adolat huquqi (equity)" shakllandi. Equity umumiy huquqni bekor qilmagan, balki u yetarli huquqiy himoya bera olmagan holatlarda qo'shimcha vositalarni taqdim etgan. Xususan, "injunction", "specific performance" va trust kabi institutlarning rivojlanishi adolat huquqi bilan bog'liq. XIX asrdagi sud islohotlaridan so'ng umumiy huquq va equity yagona sud tizimi doirasida qo'llanila boshladi [9].

Zamonaviy ingliz huquqining asosiy manbalari sifatida qonunchilik, sud pretsedenti va equity tamoyillari e'tirof etiladi. Parlament tomonidan qabul qilinadigan qonunlar umumiy huquq qoidalarini o'zgartirishi yoki to'ldirishi mumkin. Sud qarorlari esa huquq normalarini sharhlash va yangi munosabatlarga tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. D. Ibbetsonning tadqiqotiga ko'ra, sud qarorlarini muntazam qayd etish va ularga huquqiy manba sifatida murojaat qilish amaliyoti uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan [10].

Ingliz huquqining alohida sohalar ham bosqichma-bosqich rivojlangan. Mulk huquqi uning dastlabki davrlaridayoq muhim o'rin tutgan bo'lsa, shartnoma, delikt va tijorat huquqi keyingi asrlarda sud amaliyoti va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan shakllandi. Savdogarlar amaliyotida mavjud bo'lgan "law merchant" qoidalari vaqt o'tishi bilan ingliz umumiy huquqi bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi [11]. Keyinchalik kompaniyalar, bank-moliya, sug'urta va boshqa tijorat sohalarining rivojlanishi ingliz huquqining zamonaviy ko'rinishini shakllantirdi.

Ingliz huquqining boshqa huquq tizimlariga retsepsiyasi

Bir davlatda shakllangan huquqiy normalar va institutlarning boshqa huquq tizimi tomonidan qabul qilinishi qiyosiy huquqshunoslikda huquq retsepsiyasi yoki huquqiy transplantatsiya tushunchalari bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaning asoschilaridan Alan Uatson huquq tizimlarining rivojlanishida xorijiy huquqiy qoidalarini o'zlashtirish odatiy hodisa ekanini ta'kidlaydi [12]. Biroq bunday o'zlashtirishning samaradorligi masalasida olimlarning qarashlari bir xil emas. O. Kahn-Freund xorijiy huquqiy modelni qabul qilishda uni yuzaga keltirgan va qabul qilayotgan davlatlarning siyosiy, ijtimoiy hamda institutsional sharoitlari o'rtasidagi farqlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [13].

Ingliz huquqining dunyo bo'ylab tarqalishi ham bir xil shaklda kechmagan. Ayrim davlatlarda ingliz umumiy huquqi tarixiy jarayonlar natijasida huquq tizimining asosiy qismini tashkil etgan bo'lsa, boshqalarida uning faqat muayyan institutlari yoki huquq sohalar qabul qilingan. Shu nuqtayi nazardan, ingliz huquqi retsepsiyasini shartli ravishda "keng qamrovli" va "selektiv retsepsiya"ga ajratish mumkin. Birinchi holatda umumiy huquq, equity prinsiplari, sud pretsedenti va ingliz huquqiy metodining katta qismi milliy huquq tizimiga singib ketadi. Selektiv retsepsiyada esa davlat ingliz huquqining faqat ehtiyoj mavjud bo'lgan ayrim institutlari yoki sohalaridan foydalanadi.

Kipr tajribasi keng qamrovli retsepsiyaning o'ziga xos misollaridan biridir. Buyuk Britaniya boshqaruvi davrida mamlakat huquq tizimiga ingliz umumiy huquqi va equity prinsiplari keng kirib kelgan. Mustaqillikdan keyin ham ularning ta'siri saqlanib qolgan. Hozirgi kunda umumiy huquq va equity Kipr huquqining rasmiy manbalari qatoriga kiradi va qonunchilikda boshqa qoida mavjud bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Kipr aralash huquq tizimi sifatida tavsiflab, uning xususiy huquqi hamda protsessual huquqida ingliz umumiy huquqining ta'siri ayniqsa kuchli ekanini qayd etadi [14]. Shu bilan birga, davlat huquqi va ayrim boshqa sohalarida kontinental huquq an'alarining ta'siri mavjud. Bu esa ingliz huquqi retsepsiyasi boshqa huquqiy an'alar bilan bir tizim doirasida birgalikda amal qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ingliz huquqini qabul qilish va keyinchalik uni milliy sharoitga moslashtirishning yanada aniq misolini Singapur tajribasida ko'rish mumkin. Singapur huquq tizimi tarixan ingliz umumiy huquqi ta'sirida shakllangan. Biroq mustaqil davlat sifatida rivojlanishi davomida ingliz huquqining qaysi qismi mamlakatda amal qilishi masalasini aniq tartibga solish zarurati yuzaga kelgan. Shu maqsadda

1993-yilda “Ingliz huquqini qo‘llash to‘g‘risida”gi qonun (Application of English Law Act) qabul qilingan [15].

Mazkur qonunning 3-moddasiga ko‘ra, 1993-yil 12-noyabrga qadar Singapur huquqining bir qismi hisoblangan Angliya umumiy huquqi, shu jumladan equity prinsiplari, Singapur huquqining tarkibiy qismi sifatida amal qilishda davom etadi. Bunda muhim shart belgilangan: ushbu qoidalar Singapur va uning aholisi sharoitlariga mos keladigan darajada qo‘llanadi hamda mahalliy sharoit talab qilgan hollarda tegishli o‘zgartirishlar bilan tatbiq etilishi mumkin. Demak, Singapur ingliz huquqini o‘zgarmas shaklda saqlab qolish yo‘lidan bormagan, balki uning qo‘llanilishini mahalliy ehtiyojlar bilan bog‘lagan.

Qonun ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan hujjatlarga nisbatan ham aniq yondashuvni belgilaydi. Faqat qonunda ko‘rsatilgan yoki boshqa milliy hujjat asosida Singapurda amal qilishi belgilangan ingliz qonunlari qo‘llanadi. Agar bunday norma Singapurning milliy qonunchiligiga zid bo‘lsa, mahalliy qonun ustuvor hisoblanadi. A.B.L. Phang ushbu islohotni Singapurda ingliz huquqini qabul qilish bilan bog‘liq uzoq vaqt davom etgan noaniqliklarni bartaraf etgan muhim bosqich sifatida baholaydi [16].

Singapur tajribasining muhim jihati shundaki, retseptsiya xorijiy huquqqa doimiy qaramlik sifatida emas, balki milliy huquqni rivojlantirish vositasi sifatida qaralgan. Ingliz umumiy huquqi huquqiy asoslardan biri sifatida saqlanib qolgan bo‘lsa-da, uning qo‘llanilishi Singapur sharoitlariga moslik va milliy qonunchilikning ustuvorligi bilan chegaralangan. Natijada tarixan ingliz huquqiga tayangan tizim asta-sekin o‘zining mustaqil sud amaliyoti va milliy huquqiy yondashuvlarini shakllantirib borgan.

Kipr va Singapur tajribasi ingliz huquqi retsepsiyasining yagona universal modeli mavjud emasligini ko‘rsatadi. Bir davlatda uning keng qismi milliy huquq tizimining tarkibiga aylanishi mumkin bo‘lsa, boshqa davlatda faqat ayrim normalar va institutlar qabul qilinishi mumkin. Shu sababli xorijiy huquqni joriy etishda asosiy masala uni qancha hajmda qabul qilish emas, balki qaysi normalar mahalliy huquq tizimining ehtiyojlariga javob berishi va ularni milliy huquq bilan qanday uyg‘unlashtirish mumkinligini aniqlashdan iborat.

O‘zbekistonda ingliz huquqini qo‘llashning shartlari va istiqbollari

O‘zbekistonda ingliz huquqini qo‘llash masalasi so‘nggi huquqiy islohotlar fonida amaliy ahamiyat kasb eta boshlamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son Farmoni bilan Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish belgilandi [17]. Keyinchalik 2026-yil 13-iyulda “Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilinib, Markaz hududida maxsus huquqiy rejim yaratildi [18]. Ushbu rejim doirasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Konstitutsiyaviy qonun va Markaz qarorlariga zid bo‘lmagan holda Angliya va Uels huquqining prinsiplari, qonunchiligi hamda sud pretsedentlarini qo‘llash nazarda tutilgan. Shuningdek, alohida xalqaro tijorat sudi va moliyaviy faoliyatni tartibga soluvchi institutlar tashkil etilmoqda. Shu ma’noda, mazkur islohot O‘zbekistonda ingliz huquqi elementlarini amaliy huquqiy muhitda qo‘llash bo‘yicha dastlabki tajriba sifatida baholanishi mumkin.

Biroq ingliz huquqidan foydalanish istiqbolini faqat maxsus moliyaviy hudud bilan cheklash to‘g‘ri bo‘lmaydi. O‘zbekiston iqtisodiyotining xalqaro bozor bilan integratsiyalashuvi ayrim xususiy-huquqiy va tijorat munosabatlarida xalqaro biznes amaliyotida keng qo‘llaniladigan huquqiy institutlarga ehtiyojni oshirmoqda. Bunda, eng avvalo, xalqaro tijorat shartnomalari, korporativ munosabatlar, investitsiya va loyiha moliyalashtirish, bank-moliya operatsiyalari hamda nizolarni hal etish sohalarida istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ko‘rilishi mumkin.

Xalqaro tijorat shartnomalarida ingliz huquqining ayrim yondashuvlari ayniqsa amaliy ahamiyatga ega. Murakkab transchegaraviy bitimlarda taraflarning huquq va majburiyatlarini batafsil belgilash, risklarni taqsimlash, kafolatlar, javobgarlik chegaralari va shartnomani bekor qilish oqibatlarini oldindan aniq tartibga solish ingliz shartnoma amaliyotining kuchli jihatlaridan hisoblanadi. Korporativ huquqda esa aksiyadorlar kelishuvlari, direktorlarning majburiyatlari, minoritar investorlarni himoya qilish hamda qo‘shib olish va birlashish bitimlarida shakllangan ingliz huquqi tajribasi qiziqish uyg‘otadi. Bank va investitsiya sohalarida esa sindikatlashgan kreditlar,

loyiha moliyalashtirish, ta'minot instrumentlari va boshqa murakkab moliyaviy bitimlar bo'yicha rivojlangan huquqiy amaliyotdan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish mumkin.

Shu bilan birga, bunday institutlarni milliy qonunchilikka joriy etish mexanik ko'chirish shaklida amalga oshirilmaligi kerak. Ingliz huquqi sud pretsedenti va equity tamoyillariga katta o'rin beradigan tizim bo'lsa, O'zbekiston huquqi asosan kodifikatsiyalashgan normativ-huquqiy hujjatlarga tayanadi. Shu sababli ingliz huquqidagi institutni O'zbekiston qonunchiligiga kiritishda uning nomi yoki normasini tarjima qilishdan ko'ra, avvalo uning qanday vazifani bajarishi va milliy huquqdagi mavjud institutlar bilan qanday munosabatga kirishishi aniqlanishi lozim. Huquqiy transplantatsiya nazariyasida ham xorijiy institutning samaradorligi uning qabul qiluvchi davlatning huquqiy va institutsional muhitiga qay darajada moslashtirilganiga bog'liqligi ta'kidlanadi.

Yana bir muhim muammo huquq tizimining ichki izchilligini saqlash bilan bog'liq. OECDning O'zbekiston investitsiya muhitiga bag'ishlangan 2025-yilgi tadqiqotida amaldagi qonunchilikdagi takrorlanishlar, turli normativ hujjatlar o'rtasidagi kolliziyalar va ikkilamchi qonunchilikka haddan tashqari tayanish investorlar uchun huquqiy noaniqlik yuzaga keltirayotgani qayd etilgan [19]. Shu sababli yangi xorijiy huquqiy institutlarni joriy etish mavjud tizimdagi parchalanganlikni yanada kuchaytirmasligi kerak. Aksincha, har bir yangi institutning Fuqarolik kodeksi, korporativ qonunchilik, investitsiya va moliya sohasidagi amaldagi normalar bilan o'zaro bog'liqligi oldindan baholanishi zarur.

Amaliy jihatdan yana bir masala ingliz huquqini to'g'ri talqin va qo'llay oladigan professional muhitni shakllantirishdir. Pretsedent bilan ishlash, equity prinsiplarini tushunish va ingliz sud qarorlaridagi huquqiy pozitsiyani aniqlash kontinental huquq tizimidagi odatiy normani sharhlashdan farq qiladi. Shu sababli bunday institutlarni joriy etish bilan bir vaqtda sudyalor, advokatlar, korporativ yuristlar va arbitraj mutaxassislarining tayyorgarligini rivojlantirish talab etiladi. Aks holda normaning qonunchilikda mavjudligi bilan uning amalda bir xil va barqaror qo'llanilishi o'rtasida tafovut yuzaga kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich va selektiv retseptsiya eng maqbul yondashuv bo'lib ko'rinadi. Toshkent xalqaro moliya markazidagi yangi huquqiy rejim bu borada muhim amaliy tajriba to'plash imkonini beradi. Uning faoliyati davomida ingliz huquqi normalarining qanday talqin qilinishi, milliy qonunchilik bilan qanday munosabatga kirishishi, biznes subyektlari tomonidan qanchalik talab qilinishi va nizolarni hal etishda qanday natija berishi kuzatilishi mumkin. Keyingi bosqichda esa samaradorligi amaliyotda tasdiqlangan ayrim institutlarni umumiy tijorat, korporativ yoki moliya qonunchiligiga moslashtirib kiritish masalasi ko'rib chiqilishi mumkin.

Demak, O'zbekiston uchun istiqbol ingliz huquqini yaxlit tizim sifatida qabul qilishda emas, balki milliy huquq va iqtisodiyotning aniq ehtiyojlariga javob beradigan institutlarni tanlab olishdadir. Bunda asosiy mezon xorijiy institutning nufuzi emas, uning mavjud huquq tizimiga mosligi, biznes uchun real qiymat yaratishi va amalda barqaror qo'llanish imkoniyati bo'lishi lozim.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz huquqidan foydalanish masalasini xorijiy huquqiy modelni oddiy tarzda qabul qilish sifatida baholash yetarli emas. Bunda asosiy masala qaysi institutni joriy etishdan ko'ra, uning milliy huquq tizimida qanday ishlashi, mavjud normalar bilan qay darajada uyg'unlashishi va amaliy ehtiyojga javob berishidadir. Shu ma'noda, ingliz huquqining boshqa davlatlardagi retseptsiyasi ham universal modelga emas, balki mahalliy huquqiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan turli yondashuvlarga asoslangan.

O'zbekiston uchun ham eng maqbul yo'l ingliz huquqini yaxlit huquq tizimi sifatida qabul qilish emas, balki amaliy qiymatga ega bo'lgan institutlarni bosqichma-bosqich va selektiv ravishda o'zlashtirishdir. Bunda, birinchi navbatda, xalqaro tijorat va investitsiya amaliyotida real talab mavjud bo'lgan huquqiy mexanizmlar aniqlanishi lozim. Ularning milliy qonunchilikka mosligi, boshqa huquq institutlari bilan o'zaro ta'siri va huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlari oldindan baholanishi zarur.

Shuningdek, ingliz huquqi institutlarini joriy etish faqat normativ o'zgarishlar bilan cheklanmasligi kerak. Ularni samarali qo'llash uchun tegishli sud va arbitraj amaliyoti, malakali

yuridik kadrlar, huquqiy terminologiyaning bir xilda talqin qilinishi hamda xorijiy sud amaliyoti bilan ishlash ko'nikmalari shakllantirilishi lozim. Aks holda yangi institutlar qonunchilikda mavjud bo'lsa-da, amalda kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Shu asosda, ingliz huquqidan foydalanish bo'yicha keyingi islohotlarda uchta mezon ustuvor bo'lishi maqsadga muvofiq: birinchidan, institutning O'zbekiston iqtisodiy va huquqiy ehtiyojlariga mosligi, ikkinchidan, uning milliy huquq tizimi bilan uyg'unligi, uchinchidan, uni amalda barqaror qo'llash uchun zarur institutsional imkoniyatlarning mavjudligi. Ana shu shartlar ta'minlangandagina ingliz huquqining ayrim institutlari O'zbekiston huquq tizimini xalqaro tijorat amaliyotiga yaqinlashtiruvchi samarali vositaga aylanishi mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Cuniberti G. "The International Market for Contracts: The Most Attractive Contract Laws" // *Northwestern Journal of International Law & Business*. – 2014. – Vol. 34. – P. 455.
2. Xalqaro savdo palatasi (International Chamber of Commerce – ICC). ICC Dispute Resolution 2025 Statistics. – Paris: ICC, 2026.
3. London xalqaro arbitraj sudi (London Court of International Arbitration – LCIA). LCIA 2024 Annual Casework Report. – London, 2025.
4. Merrett L., Sommerfeld A. "Incentives for Choice of Law and Forum in Commercial Contracts: Predicting the Impact of Brexit" // *European Review of Private Law*. – 2020. – Vol. 28, No. 3. – P. 627–664.
5. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. "2025-yilda O'zbekistonda o'zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 43,1 milliard AQSh dollariga yetdi". – 2026-yil 7-yanvar. (Ministry of Investment, Industry, and Trade of the Republic of Uzbekistan. "In 2025, total investments in Uzbekistan reached USD 43.1 billion." – January 7, 2026)
6. Саидов А. Х. Сравнительное правоведение: академический учебник. Москва: Норма: ИНФРА-М, 2024. 320 с. (Saidov, A. Kh. Jurisprudence: Academic Student. Moscow: Norma: INFRA-M, 2024. 320 p.)
7. Марченко М. Н. Правовые системы современного мира. Москва: Зерцало-М, 2015. 528 с. (Marchenko, M. N. Legal Systems of the Modern World. Moscow: Zertsalo-M, 2015. 528 p.)
8. Hudson J. *The Formation of the English Common Law: Law and Society in England from King Alfred to Magna Carta*. 2nd ed. London: Routledge, 2018.
9. Baker J. H. *An Introduction to English Legal History*. 5th ed. Oxford: Oxford University Press, 2019.
10. Ibbetson D. J. "Law Reporting, Authority and Precedent: The Common Law Paradigm" // *Authorities in Early Modern Law Courts*. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2021. P. 84–97.
11. Baker J. H. "The Law Merchant and the Common Law Before 1700" // *The Cambridge Law Journal*. 1979. Vol. 38, No. 2. P. 295–322. DOI: 10.1017/S0008197300094204.
12. Watson A. *Legal Transplants: An Approach to Comparative Law*. 2nd ed. Athens: University of Georgia Press, 1993.
13. Kahn-Freund O. On Uses and Misuses of Comparative Law // *The Modern Law Review*. 1974. Vol. 37, No. 1. P. 1–27. DOI: 10.1111/j.1468-2230.1974.tb02366.x.
14. Hatzimihail N. E. Cyprus as a Mixed Legal System // *Journal of Civil Law Studies*. 2013. Vol. 6, No. 1. P. 37–96.
15. Singapore. *Application of English Law Act 1993*. Act No. 35 of 1993. 2020 Revised Edition.
16. Phang A. B. L. Cementing the Foundations: The Singapore Application of English Law Act 1993 // *University of British Columbia Law Review*. 1993. P. 205–246.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 30, 2026 No. PF-48 "On the establishment of the Tashkent International Financial Center")

- 18.** O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 13-iyuldagi O‘RQ-1158-son “Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. (Constitutional Law of the Republic of Uzbekistan dated July 13, 2026 No. ZRQ-1158 “On the Tashkent International Financial Center”)
- 19.** OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. OECD Investment Policy Reviews. Paris: OECD Publishing, 2025.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.